

**TARBIYADA MILLIY QADRIYATLAR, OILAVIY UDUMLAR VA AN'ANALAR**

**Jumayeva Zoxidaxon Muhammadjonovna**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti

boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchisi

@mail: [Djumayevazoxida@gmail.com](mailto:Djumayevazoxida@gmail.com)

**Meliboyeva Sojida O'ktamovna**

**Jumanazarova Durdona Abduvoxidovna**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari

@mail: [meliboyevasojida@gmail.com](mailto:meliboyevasojida@gmail.com)

**Annotasiya:** Ushbu maqolada milliy qadriyatlar, urf-odatlar, oilaviy udumlar va an'analar, urf-odatlarining ahamiyati yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar, marosimlar, xalq, madaniyati, ma'naviyat, axloq, odob.

O'zbek xalqi barcha zamonlarda o'zining rang-barang va yuksak madaniyati, milliy qadriyatlari, urf-odat va an'analari bilan ajralib turgan. Ma'lumki, milliy urf-odat, an'analar va udumlar juda uzoq yillar davomida yaratilgan va xalqning turmush tarziga aylanib kelgan. Ular millatning hayot tomiri, mustahkam ildizlaridir. Barcha davrlarda bosqinchi-mustamlakachilar xalqning ustidan hukmronlik qilish uchun ularning milliy urf-odatlari, an'analari, qadriyatlari, tili, dini, umuman, milliy o'zligidan ayirishga harakat qilganlar. Bizning xalqimiz ham o'zining uzoq tarixiy taraqqiyoti davomida mana shunday harakatlarni boshidan o'tkazdi. Masalan qadimgi yunon sarkardasi Aleksandr Makedonskiy yurtimizga bostirib kelgan vaqtida ajdodlarimizning ma'naviy boyligi bo'lgan «Avesto» kitobini yoqib, yo'q qilishi bunga yorqin misol bo'la oladi. Xalqimizni milliy an'ana va urf-odatlaridan mahrum qilish siyosati sho'rolar mustamlakachiligi davrida ham yaqqol namoyon bo'ldi. Ular xalqimiz turmush tarzining tarkibiy qismiga aylanib ketgan udumlar, urf-odat va an'analari, turli bayramlari, marosimlari, hattoki, do'ppisi, sumalagi, beshigini cheklab qo'yish uchun turli bahonalarni o'ylab topdilar va ustalik bilan amalga oshirdilar. Ammo Vatanimiz mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, an'analarimiz yana o'z holiga qaytdi va yana tiklandi. Milliy ma'naviyatimiz va madaniyatimizning tarkibiy qismi bo'lgan urf-odat, an'analarimiz bugungi kunda o'zini qaytadan tiklamoqda. Xalqimizning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan va turmush tarzining tarkibiy qismiga aylanib ketgan milliy qadriyatlarimiz, urf-odat, an'analarimizdan kichiklarning kattalarga salom berishi, mehmondo'stlik, betob, o'jiz, qiynalganlarga yordam berish, hasharlarga borish, yetimlarning haqini yemaslik va boshqa insoniy fazilatlar tiklanmoqda. Inson turmushidagi urf-odatlar ma'ium darajada odarning o'z- o'zini, ijtimoiy burchini anglashga, shaxs sifatida shakllanishiga ham

ijobi y ta' sir qiladi. Ular odamlarga hayot kechirish, kurashish uchun ijtimoiy yo'l-yo'riqlar beradi. Bu xususiyat uzoq o'tmishdagi urf-odatlardan tortib, bizning davrimizdagi urf-odatlarga ham xosdir. Chunki fan, adabiyot, san'at sohasida urf-odatlar amal qilmaydi, mehnat an analari ham urf-odat sanalmaydi. Urf-odatlar oilaviy tunnush munosabatlarining, axloqiy normalarning mayda tafsilotlarida namoyon bo'ladi. Xotin-qizlar bilan munosabatda bo'lish tartiblari, ular bilan salomlashish qoidalari, keksalarga ko'rsatiladigan hurmat-ehtiram, mehmondorlik va mezbonlik qoidalari, dafn marosimlariga borish, undan qaytish tartiblari va boshqalar urfodat hisoblanadi. Urf-odat va an'analar har bir xalqda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. O'z xalqining urf-odat va an'alarini bilish va hurmat qilish zarurdir. Chunki milliy urf-odat va an'analarga hurmat o'z millatiga hurmatning tarkibiy qismi hisoblanadi. Vatanimiz buyuk taraqqiyot yo'lidan ildam qadamlar bilan yuksalib bormoqda. Kelajakda buyuk davlat barpo etish va Vatanimiz uchun yaxshi munosib turmush tarzini yaratish oliy maqsadimizdir. Bu maqsadlarga erishishimiz xalqimiz, ayniqsa yoshlarimizga bog'liq. Rivojlanishning muhim omillari milliy g'urur, milliy tuyg'u, milliy o'zlikning tiklanishidir. Odamlarimizda milliy g'urur, milliy o'zlikni tiklamasdan kelajagimizni tasavvur eta olmaymiz. Milliy g'urur, milliy o'zlikning tiklanishida urf-odat va an'analarni bilish va hurmat qilish katta ahamiyat kasb etadi. Har bir inson o'z xalqining urf-odat va an'alarini bilishi va hurmat qilishi shart. Ularni hurmat qilmaslik natijasida inson o'z millatidan ajralib qolishi mumkin. Yoshlarimizni har tomonlama barkamol insonlar qilib shakllantirishda milliy urf-odat va an'analarning o'rni beqiyos. Har bir yetishib kelayotgan yosh avlodni, avvalambor oilada, so'ngra ta'lim-tarbiyaning keyingi bosqichlarida milliy urf-odat, an'analar ruhida tarbiyalash lozim. Ularda milliy urf-odat va an'alarimizga hurmat tuyg'usini shakllantirish barkamol insonni shakllantirishning muhim omillaridan biridir. O'zbek xalqining urf-odatlari asrlar bo'yi o'zbeklar millatining tashkil topishida ishtirok etgan barcha qabilalar va elatlarning madaniy malakalari va an'alarining uyg'unlashuvdagi murakkab jarayonlar oqibatida tarkib topgan. Ular o'ta o'ziga xos, yorqin va turli-tuman bo'lib, urug'chilik patriarxal munosabatlaridan kelib chiqadi. Urf-odatlarning ko'pchiligi oilaviy hayotga oid bo'lib, bolaning tug'ilishi va tarbiyasi (beshik to'yi, xatna qilish), nikoh (fotiha to'yi, to'y) bilan bog'liq bo'ladi. Ko'pincha ular islom urf-odatlarning sehirgarlik amaliyoti bilan bog'liq bo'lgan undan ham qadimiyroq shakllarga uzviy kirib ketishini namoyon etadi. Islom qabul qilinganidan beri ko'pgina oilaviy-maishiy urf-odatlar uning ta'sirida o'zgargan, o'zbeklarning hayotiga musulmon diiy marosimlari kirib kelgan. Juma kuni bayram kuni hisoblanadi va shu kuni barcha yig'iladigan masjidida umumiy namoz (duo) o'qiladi. Patriarxal urf-odatlar masjid, choyxonalar, bozorda o'tadigan hamda faqat erkaklar ishtirok etadigan ijtimoiy hayotda hozirgacha ham yashamoqda.

Biz o'z taqdirimizni o'z qo'limizga olib, azaliy qadriyatlarimizga suyanib, shu bilan birga, taraqqiy topgan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda, mana shunday olijanob intilishlar bilan yashayotganimiz, xalqimiz asrlar davomida orziqib kutgan ozod, erkin va farovon hayotni barpo etayotganimiz, bu yo'lda erishayotgan yutuqlarimizni xalqaro hamjamiyat tan olgani-bunday imkoniyatlarning barchasini aynan mustaqillik berganini bugun hammamiz chuqur anglaymiz.

Milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga qarshi va xatarlar foydalanish kuchaymoqda. Lekin o'zini o'ylash, hayotga, menatga, oilaga engil qarash, iste'molchilik kayfiyati kabi illatlar turli yo'llar bilan aholini ayniqsa, hali "oq,qora"ni farqlay olmaydigan yoshlar ongiga singdirilmoqda. Terrorism, ekstremizm, millionlab kiber jinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi zararlar xavfi yordam ortib bormoqda.

O'zbek xalqining milliy ma'naviyati va qadriyatlari o'tmish milliy ma'naviyatining davomi bo'lib, ularga do'stlik, o'rtoqlik, mehmondo'stlik, odamgarchilik, insonparvarlik, axloqiy teranlik, tadbirkorlik, saxiylik, xushmuomalalik, jamoa ichida o'zini tuta bilishlik, hayolilik, sizlab muomala qilish, ozodalik, xushchaqchaqliq, xushfe'llik, mardlik, samimiylik, oilaparvarlik, shirinso'zlik, tashabbuskorlik, ota-ona va kattalarni hurmat qilish, mehnatsevarlik, o'tmishga hurmat, insofilik, iymonlilik, milliy g'urur, mustaqillikni qadrlash, vatanpar-varlik va boshqa milliy, ma'naviy-axloqiy fazilatlar kiradi. Millat, xalq bor ekan, uning ma'naviy dunyosida milliy jihatlar doim saqlanib qoladi. O'zbeklarning milliy ma'naviyati, erkak va ayollarning o'ziga xos sharqona axloqiy fazilatlarini, ota-ona, farzandlar, qo'ni-qo'shnilar, mahalla-ko'y aloqalari, halollik, iymon, vijdon bilan bog'liq, ma'naviyati faqat o'tmish sadosi emas, balki hozirgi kun uchun ham xosdir. Kattalarga, ota-onalarga hurmat, kamtarlik, xalollik, iymon, mehnatsevarlik, mehmondo'stlik singari milliy-ma'naviy fazilatlarimiz hamisha barqaror. Chunki bu ma'naviy xislatlar avloddan-avlodga o'tib qon-qonimizga singib ketgan. Ayollarimiz qanchalik zamonaviylashmasinlar, ular hayo, ibo, nomus bobida, oila, qarindosh-urug'larga nisbatan munosabat bobida, sharqona, o'zbekona fazilatlarini tark etmaydilar. Millat bor ekan, uning ma'naviyati saqlanib qoladi va rivojlanaveradi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ota-onani, yoshi ulug'lar hurmatini va kichiklar izzatini o'z o'rniga qo'yish milliy ma'naviyatimizga kiradi. Bu yo'l istiqbol va istiqbol yo'llarini o'tmishning boy tajribasi bilan bog'lashga yaqindan yordam beradi.

Odatda kishilar ko'pincha ikki ishda xato qiladilar. Birinnisi yoshlarni hali yosh deb, ularga ishonmaydilar. Ikkinchisi keksalarni qariya deb, chetga surib qo'yadilar.

Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan, degan edilar Shavkat Mirziyoyev,

Yoshlarda kelajakka intilish bilan bog'liq bo'lgan tashabbus, kuch va g'ayrat bo'ladi. Keksalarda esa hayot yo'lida ko'p issiq-sovuq kunlarni boshdan kechirib, boy tajriba orttirganlari uchun uzoqni o'ylab, bosiqlik bilan ish qilish, etti o'lchab bir kesish singari ma'naviy boylik va etuk tafakkur salohiyati bor. O'zbeklarning «Qari bilganni pari bilmas», degan hikmatida ko'p ma'no bor. Yoshlarning tashabbusi, kuchi, g'ayrati keksalarning boy hayotiy tajribasi bilan bog'langandagina ko'zlangan ijobiy samaraga erishish mumkin. Kexsa avlodning bilimi, hayot tajribasi yoshlar uchun ma'naviy kamolot va ibrat maktabidir. Hozirgi paytda jamiyatimiz oldida shaxs, oila turmush tarzini yaxshilash va u bilan bog'liq oilaviy an'analar, urf-odatlarini, marosimlarga e'tibor qaratish muhim muammo bo'lib turibdi. Oilaviy marosimlar xalq ma'naviyatining tarkibiy qismi, muhim axloqiy qadriyati, ta'sirchan tarbiya vositasi sanaladi. Oilaviy marosimlar jarayonida sodir bo'ladigan axloq-odob, mehr-muhabbat kabi xislatlar yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Xalq qadriyatlari qadrlanadigan oilalarda tarbiya topgan yoshlar ibratli axloqi bilan boshqalardan ajralib turadi. Bunday oilalardan jinoyatchi, bezori kishilar chiqmaydi. Shu bois xalq an'analari va oilaviy urf-odatlar yordamida yoshlarni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Oilaviy an'analar bu oilaga xos bo'lgan xatti-harakatlar normalari va uslubi, odatlar va munosabatlar, shuningdek, meros bo'lib qolgan an'analar. Shuningdek, oilaviy urf-odatlar mavjud kundalik hayotda o'zini tutishning belgilangan tartibi hisoblanadi. Oila va oilaviy an'analar farzand tarbiyasining asosidir. Zero, bola aynan oilada odamlar bilan

muloqot qilishning tajribasini o'rganadi, insoniy munosabatlarning ko'p qirraliligini anglaydi, ma'naviy, axloqiy, aqliy va jismoniy jihatdan kamol topadi. Har bir uyda amalga oshiriladigan o'ziga xos qoidalar va odatlar mavjud. Oila an'analari va urf-odatlarini jamiyat bilan munosabatda bo'lishga, yaqin oila qurishga, oilaviy rishtalarni mustahkamlashga, o'zaro tushunishni yaxshilashga va janjallarni kamaytirishga yordam beradi. Oilaviy tarbiya an'analari mavjud bo'lgan va amalda bo'lgan oila davralarida bolalar ota-onalarning fikrini tinglaydilar, ota-onalar esa bolalarning muammolariga e'tibor berishadi va ularni engishda yordam berishadi. Oilaviy an'analarning asosiy turlari Oilaviy bayramlar va ularga bag'ishlangan an'analardir. Masalan, tug'ilgan kun, bu ko'pincha bolaning hayotidagi birinchi muhim voqea bo'ladi. Sovg'alar, maxsus tayyorgarlik, bayramona taomlar bunday kunni boshqalardan ajratib turadi va tug'ilgan kungi odamga tadbirning ahamiyatini his qilish imkonini beradi, mehmonlarni qabul qilishni o'rgatadi. Bu, shuningdek, mamlakat, jahon diapazonidagi odamlarni birlashtirgan milliy bayramlarni nishonlashni o'z ichiga oladi. Bolalar bilan umumiy o'yinlar. Shunday qilib, ota-onalar bolaga o'rnak bo'lishadi, ularni turli mashg'ulotlar bilan tanishtiradilar, unga turli ko'nikmalarni o'rgatadilar. Butun oila yig'ilishi. Masalan, narsalarni tartibga solish uchun ma'lum bir davr uchun keyingi rejalarni belgilang, oila byudjeti va xarajatlarini muhokama qiling. Bu bolada oiladagi voqealar haqida tasavvurga ega bo'lish, mas'uliyat, oilaviy muammolarni hal qilishda ishtirok etish imkonini beradi. Mehmondo'stlik an'analari, barcha oila a'zolarining birgalikda kechki ovqatlari. Mehmondo'stlik oilalarni birlashtiruvchi, do'stlar bilan rishtalarni mustahkamlovchi milliy an'ana ham sanaladi. Oiladagi muhim voqealarni nishonlash: yubileylar, uy xo'jaligining muvaffaqiyatlari va yutuqlari. Jazolash va rag'batlantirish an'analari. Bu bolani o'z harakatlarini nazorat qilishga undaydi. Biroq, qoidalarning haddan tashqari jiddiyligi bolaning erkinligini cheklaydi, uning psixikasini ortiqcha yuklaydi. Siz hayotni qiyinlashtiradigan qoidalarni kiritmasligingiz kerak. Uyqu haqidagi hikoyalar. Xayrli tun, xayrli tong, xayrli tun o'pish tilaydi. Bunday munosabatlar hatto kattalar bolasi bilan ham muhimdir. Axir, g'amxo'rlik va mehrning etishmasligidan bolalar befarq va qo'pol bo'lib o'sadi.

An'analardir va urf-odatlar yoshlarni yuksak ideallar ruhida tarbiyalashda ta'sirchan vositadir. Zero, an'ana va urf-odatlarini shakllantirish, hayotga tadbiiq etish murakkab jarayon bo'lib, buning uchun uzoq vaqt kurash olib borish, ijtimoiy va ma'naviy yutuqlarimizni yanada rivojlantirish, umummilliy an'analarni takomillashtirish talab etiladi.

Ajdodlarimiz asrab avaylab kelgan urf-odatlarimizni, an'analimizni, marosimlarimizni, sharqona odobimizni, naslimiz pokligini, buyukligimizni asrab-avaylash kelgusi avlodlarga yetkazish bizning qo'limizdandir, shuning uchun ularni asrab-avaylaylik.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1.R.Mavlonova, B. Normurodova, N. Rahmonqulova Tarbiyaviy ishlar metodikasi «Tib-kitob» nashriyoti Toshkent-2010

2.0. Hasanboyeva Oila pedagogikasi. Toshkent. "Aloqachi" 2007.

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 19-yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha videosektor yig'ilishidan.

4. Shavkat Mirziyoyev Insonparvarlik,ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridor. "Tasvir" nashriyot uyi. Toshkent 2021.
- 5.Islom Abdug'aniyevich Karimov Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent "Ma'naviyat 2008.
6. Abdullayeva Barno Sayfutdinovna ,Tursunova Malika Baxtiyor qizi, Xaydarova Mahliyo Xabibullayevna BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TARBIYA FANI Toshkent 2022
- 7.www.ziyouz.com.